



## NATURAL RESOURCES AND THEIR SMART USE

**S. Ibragimov**

Lecturer

Uzbekistan State University of World Languages

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: [s.ibragimov@uzswlu.uz](mailto:s.ibragimov@uzswlu.uz)

### ABOUT ARTICLE

**Key words:** natural resources, land, water, minerals, exhaustible and inexhaustible resources.

**Received:** 23.04.24

**Accepted:** 25.04.24

**Published:** 27.04.24

**Abstract:** All types of natural resources used by people in the course of their lives and activities are considered natural resources, and their rational use is one of the most pressing issues today. This article provides information on ways to use natural resources wisely.

## TABIIY RESURSLAR VA ULARDAN OQILONA FOYDALANISH YO‘LLARI

**S. Ibragimov**

o‘qituvchi

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: [s.ibragimov@uzswlu.uz](mailto:s.ibragimov@uzswlu.uz)

### MAQOLA HAQIDA

**Kalit so‘zlar:** tabiiy resurslar, yer, suv, mineral, tugaydigan va tugamaydigan resurslar.

**Annotatsiya:** Inson hayoti va faoliyati davomida tabiatdan foydalanadigan barcha turdagi tabiat ne‘matlari tabiiy resurslar hisoblanib, ulardan oqilona foydalanish bugungi kundagi eng asosiy dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi. Mazkur maqolada tabiiy resurslardan oqilona foydalanishning ilmiy-amaliy asoslari o‘rganilgan va tahlil qilingan.

## ПРИРОДНЫЕ РЕСУРСЫ И ИХ РАЗУМНОЕ ИСПОЛЬЗОВАНИЕ

**С. Ибрагимов**

преподаватель

Узбекский государственный университет мировых языков

Ташкент, Узбекистан

E-mail: [s.ibragimov@uzswlu.uz](mailto:s.ibragimov@uzswlu.uz)

---

**О СТАТЬЕ**

---

**Ключевые слова:** природные ресурсы, земля, вода, полезные ископаемые, исчерпаемые и неисчерпаемые ресурсы.

**Аннотация:** Все виды природных ресурсов, используемые людьми в процессе их жизни и деятельности, считаются природными ресурсами, и их рациональное использование является сегодня одним из наиболее актуальных вопросов. В данной статье изучаются и анализируются научные и практические основы рационального использования природных ресурсов.

---

**KIRISH**

Hozirgi kunda juda ko'p mamlakatlar suv muommosidan aziyat chekmoqda. Buning asosiy sababi iqlimiy o'zgarishlar va suv resurslaridan oqilona foydalanishni to'g'ri yo'lga qo'yilmaganligidir. Jumladan, Orol dengizini oladigan bo'lsak, Amudaryo va Sirdaryo suv resurslaridan noto'g'ri foydalanganligi tufayli bu muammo eng xavfli global muammoga aylangan. "Orol muammosi" tufayli nafaqat O'rta Osiyo tabiiy o'lkasiga, balki Osiyo qi'tasiga ham o'z ta'sirini ko'rsatmoqda. Shu sababli ham suv resurslaridan unumli foydalanish maqsadida O'zbekistonda ham ko'p tadbirlar amalga oshirilmoqda. So'nggi paytda atrof-muhit va uning resurslari, ya'ni suvni muhofaza qilish eng dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, bugun sayyoramizda 1 mlrd dan ortiq odam toza suvdan foydalanish imkoniyatiga ega emas. Aholi sonining tez o'sib borishi va iqlim o'zgarishlari oqibatida suv resurslari tanqisligi yanada ortib bormoqda. Suv resurslarini saqlab qolish uchun butun yer yuzi davlatlari suv resurslariga ma'suliyat bilan munosabatda bo'lishi va ulardan birgalikda oqilona foydalanishi zarur. Sayyoramizning suv resurslarini o'rganish, saqlash va ulardan foydalanishga bag'ishlangan eng yirik xalqaro tadbir bo'lgan "Umumjahon suv forumi" 1997-yildan buyon uch yilda bir marta o'tkazib kelinmoqda.

**ASOSIY QISM**

2012-yildagi "Umumjahon suv forumi" Toshkentda bo'lib o'tganligi bilan ahamiyatga ega bo'lib, uning mavzusi "Maqsaddan-yechimlar sari" deb belgilangan. Unda quyidagi masalalar bo'yicha kelishilgan yondashuvlarni ishlab chiqilgan. Bular: suvdan kafolatlangan tarzda foydalanish va suvga bo'lgan huquq, suv resurslarini integratsiyalashgan boshqaruvni joriy etish orqali suvdan ko'p tomonlama foydalanish muvozanati, suv resurslari va ekotizimlar sifatini yaxshilash, urbanizatsiyalashayotgan dunyodagi iqlim va global o'zgarishlarga moslashish kabi masalalardan iborat edi. Ayni paytda mintaqamiz uchun transchegaraviy suv inshootlarini xalqaro huquq asosida boshqarishni tashkil qilish, suv resurslarini integratsiyalashgan boshqarishni keng joriy etish, buni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligini, jumladan, irrigatsiyani isloh qilish ustuvor ahamiyatga ega. Shu bois suv resurslarini boshqarish va tejash sohasidagi mintaqaviy hamkorlik doirasida samarali yondashuv, ma'suliyatli munosabat va birgalikdagi sa'y-harakatlar zarur.

Mamlakatimiz atrof-muhitni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish sohasidagi barcha asosiy hujjatlarga, shu jumladan, BMT ning transchegaraviy suv oqimlarini va xalqaro ko'llarni muhofaza qilish hamda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanishga doir boshqa xalqaro hujjatlarga qo'shilgan.

O'zbekiston Respublikasi - qulay iqtisodiy geografik o'ringa ega bo'lgan mamlakatlardan biri. U O'rta Osiyo tabiiy o'lkasining Markaziy qismida, Amudaryo va Sirdaryo kabi yirik daryolar oralig'ida joylashgan. Mamlakat hududi G'arbdan Sharqqa deyarli 1,5 ming km.ga, shimoldan janubga esa 1,0 ming km.ga cho'zilgan. Hududining kattaligi jihatidan O'zbekiston qator Yevropa davlatlari Buyuk Britaniya, Daniya, Shveysariya, Avstriyalarning birgalikdagi maydonlaridan ham oldinda turadi hamda jahon mamlakatlari ichida 53-o'rinni egallaydi. Respublika shimoli-g'arbda Qozog'iston, sharq va janubi-sharqda Qirg'iziston va Tojikiston, g'arbda - Turkmaniston, janubda - Afg'oniston bilan chegaradosh. Umumiy chegarasining uzunligi - 6221 km. Shu jumladan, Qozog'iston bilan - 2203 km, Qirg'iziston bilan - 1999 km, Tojikiston bilan - 1161 km, Turkmaniston bilan - 1621 km va Afg'oniston bilan 137 kmni tashkil etadi.

O'zbekiston Respublikasida mavjud tekislik va tog' relyefi o'ziga xos ravishda birlashib ketgan. Tekisliklar respublikaning janubi-g'arbiy va shimoli-g'arbiy qismlarida joylashgan va Ustyurt platosi, Amudaryo deltasi tekisliklari hamda Qizilqumdan iboratdir. Qizilqumning janubiy chekkalari, aniqrog'i Sandiqli qumlari, Qarshi dashti va Mirzacho'lning sharqiy qismi tekislikni asta-sekin tog'oldiga o'tish zonalarini tashkil etadi. Respublika hududining uchdan bir qismini tashkil etuvchi tog' va tog'oldi zonalarini mamlakatning sharqi va janubi-sharqida joylashgan.

O'zbekistonning tog'li qismi G'arbiy Tyanshan va Hisor-Oloy tizimlariga taalluqli. O'zbekistonning eng baland joyi Xazrati Sulton cho'qqisi - 4643 m ga teng. Tog'lar oralig'ida juda katta miqyosdagi botiqlar, jumladan Farg'ona vodiysi, Toshkent-Mirzacho'l tekisligi, Sanzor-Nurota botig'i, Zarafshon vodiysi, Surxondaryo va Qashqadaryo botiqlari joylashgan. Farg'ona vodiysi juda katta tog' oralig'i botig'idir. U g'arbdan sharqqa 370 km ga cho'zilgan, kengligi 190 km ga yetadi. Uch tarafdin tog'lar bilan o'ralgan, faqat g'arb tomondan (Xo'jand darvozasi joylashgan) ochiq.

Respublika tabiiy sharoitlarining o'ziga xos xususiyati - yuqori darajada seysmikligi bilan ajralib turadi. Seysmiklik 8 dan 9 ballgacha yetadi. Juda katta vayronagarchiliklar keltirgan zilzilalar qatoriga Farg'ona (1823 yil), Andijon (1889-1902 yillar), shuningdek, Toshkent (1868 va 1966 yillar) zilzilasi kiritiladi.

O'zbekiston - serquyosh respublika. Quyoshning nur sochish soati yiliga mamlakat shimolida 2700 soatdan - 2980 soatgacha, janubida 2800 - 3130 soatgacha o'zgarib turadi. Taqqoslash uchun shuni aytish lozimki, G'arbiy Yevropa mamlakatlarida bu ko'rsatkich O'rta Osiyoga xos ko'rsatkichning 70-80 % ni tashkil etadi, xolos.

Mamlakatimiz Prezidenti eng yuksak darajadagi xalqaro anjumanlarda bir necha marotaba jahon hamjimiya­ting e'tiborini bu yo'nalishda kompleks chora-tadbirlarni amalga oshirish zarurligini ko'rsatdi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan qator deklaratsiyalar imzolandi. Orol dengizini qutqarish shu bilan birga Orol dengizi bo'yidagi tabiiy ekotizimni saqlab qolish uchun xalqaro jamg'arma tashkil qilindi, yirik konferensiyalar o'tkazildi. Bundan tashqari yurtimiz tabiatini muhofaza qilishga doir yagona, ekologik siyosat yuritilmoqda. Bundan maqsad esa, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, yurtimiz ekotizimini saqlash, ekologik masalalar bo'yicha xalqaro aloqalarni yanada rivojlantirish va eng asosiysi esa yoshlar ongida ekologik ma'daniyatni uyg'otishdan iboratdir.

Davlat ekologik siyosatining muvaffaqiyatli olib borilishi qonunchilik hujjatlarining holati va takomillashtirilishiga bog'liq. Shunday ekan, ekologik qonunchilikni bosqichma-bosqich va tizimli takomillashtirib borish davlatning eng muhim vazifalaridan biridir. Birinchi prezidentimiz Islom Karimov ta'kidlaganlaridek, bugungi kunda ekologik yo'nalishdagi 100 dan ortiq nodavlat va notijorat tashkilotlarni birlashtirgan O'zbekiston Ekologik Harakati, O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasiga saylangan deputatlar oldida ma'suliyatli vazifalar turibdi. Mazkur vazifalarni amalga oshirish maqsadida Harakat dasturi tuzildi. Dasturning strategik maqsadi mamlakatimizning tabiiy ekotizimlarini asrash, aholi salomatligini yaxshilash hamda ekologik xavfsizlikni ta'minlashdan iborat. Ta'kidlash joizki, ekologik qonunchilik bir vaqtning o'zida davlat ekologik siyosatining mustahkamlash vositasi va asosiy shakli hisoblanadi. Shuning uchun O'zbekiston Respublikasining "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida"gi, "Atmosfera havosini muhofaza qilish to'g'risida"gi, "O'simlik dunyosini muhofaza qilish va undan foydalanish to'g'risida"gi, "Hayvonat dunyosini muhofaza qilish to'g'risida", "O'rmon to'g'risida"gi qonunlarni va boshqa me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish zarur deb hisoblanadi. 1992-yil 9-dekabrda qabul qilingan "Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida" gi qonun mustaqillikning ilk davridagi birinchi qonuniy hujjatdir.

Qonun quyidagilarni qamrab olgan: atrof-muhitni muhofaza qilish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish; atrof tabiiy muhit muhofazasi borasida barcha davlat hokimiyati va boshqaruv organlari faoliyatini muvofiqlashtirish; ekologik huquq tartibotiga amal qilish; ekologik nazoratni yanada takomillashtirish va hako­zolar.

Atrof-muhitni va tabiat boyliklarini, eng avvalo jamiyat manfaatlari nuqtai nazaridan muhofaza qilinadi. Zero, ona tabiatning in'omlaridan nafaqat biz balki kelajak avlodlar ham baxramand bo'lishi kerak. Ishlab chiqarishning juda tez sur'atlarda rivojlanayotgani, aholi sonining ortib borayotgani tabiiy boyliklarini kamayib, atrof-muhitning chiqindi moddalar ifloslanayotgan tabiat muhofazasini kechiktirib bo'lmaydigan dolzarb masalalardan biriga aylantirdi. Chunki, ekologik toza muhit vatan va kelajak avlod taqdirini belgilovchi eng asosiy

omillardan biridir. Atrof-muhitning sof holda saqlanishi kelajak avlodning har tomonlama sog‘lom o‘sishi garovidir. Yuksak ma‘naviyatli, zamon bilan hamnafas ulg‘aygan yoshlargina vatan taraqqiyoti, yurt istiqboliga o‘zlarining munosib xissalarini qo‘sha oladilar.

### **XULOSA**

**Xulosa** qilib aytganda, tabiiy resurslardan oqilona foydalangan holda, atrof-muhitga ko‘rsatayotgan ta’sirlarini kamaytirish, turli masshtabdagi ekologik muommalarni bartaraf etish muhim ilmiy-amaliy ahamiyatga egadir. Shu boisdan tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni qisqa, o‘rta va uzoq muddatli strategik rejalarini ishlab chiqish lozimdir.

### **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

1. D. Yormatova. Ekologiya. Toshkent, 2015 y.
2. D.Yormatova, X.Xushvaktova. “Ekologiya va tabiatni muhofaza qilish”, darslik, Toshkent 2018 y.
3. Q.X.Muftaydinov, H.M.Qodirov, E.Yu.Yulchiyev. “Ekologiya”, darslik, Toshkent 2020 y.
4. X.Tursunov, T.Raximova. “Ekologiya”, o‘quv qo‘llanma, Toshkent 2006 y.